

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

SAYDALIYEV ISMOILJON NURMAMATOVICH

**BO‘LAJAK TRANSPORT MUHANDISLARINI TAYYORLASHDA OLIY
TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH SINERGETIK INTEGRATSIYASINI
TA’MINLASH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saydaliyev Ismoiljon Nurmatovich

Bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish
sinergetik integratsiyasini ta'minlash texnologiyasi.....3

Сайдалиев Исмоилжон Нурмаатович

Технология обеспечения синергетической интеграции высшего образования
и производства при подготовке будущих инженеров транспорта..... 24

Saydaliev Ismoiljon Nurmatovich

Technology of providing synergistic integration of higher education and
manufacturing process in the preparation of future transport engineers.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PHD.03/30.09.2020.T.124.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

SAYDALIYEV ISMOILJON NURMAMATOVICH

**BO‘LAJAK TRANSPORT MUHANDISLARINI TAYYORLASHDA OLIY
TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH SINERGETIK INTEGRATSIYASINI
TA’MINLASH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.4.PhD/Ped4179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.andmiedu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimova Ziyoda Ergashevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Qodirov Valijon Abdurahmonovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Xalimjonov Toxir Salimovich

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon mashinasozlik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.124.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil 30-oktabr soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 170119, O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Bobur shoh ko‘chasi 56-uy. Tel: (+99874) 223-47-18; faks: (+99874) 223-43-67, e-mail: info@andmiedu.uz; e-xat: andmi@exat.uz

Dissertatsiya bilan Andijon mashinasozlik instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170119, Andijon shahar, Bobur Shoh ko‘chasi 56-uy. Tel: (+99891) 612-30-06; faks: (+99874) 223-43-67, e-mail: andmi-arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 17-oktabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 17-oktabrdagi №15 raqamli reestr bayonnomasi).

U.M.Turdialiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.f.d., k.i.x.

SH.X.Yo‘ldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

Y.T.Umarova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.f.d.(PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy fanlar, xususan texnika fani yutuqlarining insoniyat dunyoqarashi va hayot tarziga muhim o'zgarishlar kiritishi, fan-texnika taraqqiyotini belgilab berishdagi ahamiyati va barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon miqyosida ta'lim taraqqiyotning muhim omili ekanligi e'tirof etilib, (WEF 2015) 2030-yilgacha qabul qilingan Ta'lim kontsepsiyasida "Ta'lim jarayonini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" fan va ta'lim yutuqlarini fanlararo integratsiya asosida o'quv materiallari mazmuniga singdirishga e'tibor qaratish muhimligi alohida ta'kidlangan. Shu jihatdan, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining turli yo'nalishlari keng tatbiq qilinib, texnika fanlarini o'qitishning integratsion tamoyillarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarda nazariy tushunchalarni faoliyatda to'g'ri, maqsadli, aniq qo'llashga doir kompetensiyalarini rivojlantirish, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va modulli ta'lim talablari asosida o'quv metodik ta'minot sifatini oshirish asosida rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda bo'lajak transport muhandislarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, korxonalarining istiqbolli rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishni amalga oshirishda hamkorlikdagi izlanishli va ijodiy faoliyatni tashkil etishning integrativ didaktik vositalarini ishlab chiqish, bo'lajak transport muhandislarining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish, talabalarga mustaqil va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhitini yaratishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak transport muhandislarining bilimini doimiy ravishda innovatsion texnologiyalar asosida kengaytirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqarish jarayonlariga faol qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak transport muhandislarini o'qitishning metodik asoslarini sinergetik integratsiya tamoyili asosida takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini respublikamiz ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari asosida rivojlantirish borasidagi islohotlar bo'lajak transport muhandislarining ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish orqali ularning kreativ fikrlash ko'nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish kabi istiqbolli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. "Korxonalar bilan hamkorlikning aniq bir mexanizmining yo'qligi, bitiruvchilarning bilim va malakasi ish beruvchi korxonalarining talablarini yetarli darajada qondira olmayotganligi sababli hozirda Zamonaviy didaktik talablar asosida oliy ta'lim tizimida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy

ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish¹, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, muhandislik ta'limining yangi yondoshuvlari, shakllari va usullarini o'rganish va amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi, 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5763-son, 2019 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotning ustuvor sohalari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini joriy etish tizimini takomillashtirishga doir tadqiqotlar respublikamiz olimlari J.Z.Madaminov, B.Sh.Usmonov, D.O.Ximmataliyev, N.A.Muslimov, Sh.S.Abduraimov, N.S.Sayidahmedov, R.K.Choriyev, R.G.Isyanov, S.M.Jumaboyev R.A.Mavlonova, A.I.Avazboyev, M.Jumaniyozovalar mehnat va kasb ta'limining metodik hamda didaktik jihatlari bo'yicha U.A.O'rinov, Z.E.Azimova, Z.E.Chorshanbiyev, U.A.Nasriddinova, U.M.Ibragimov, D.A.Achilova, R.X.Djurayev, Z.K.Ismoilova, N.A.Shermuhamedovalar tomonidan olib borilib, ta'lim jarayonidagi integratsiyaning psixologik-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy hamda metodik muammolari va ularning yechimlarini tadqiq etib, ayni soha rivojiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'lim jarayonida integratsiya va pedagogik integratsiyani ta'minlashning nazariy-metodologik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

asoslari bo'yicha Z.S.Sazonova, A.R.Shaydullina, O.A.Grisova, V.M.Filippov, S.Ya. Batishev, Ye.A.Korchagin, R.S.Safin, M.G.Chepikov, N.V.Kaygorodseva kabi olimlar tomonidan maxsus tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan oliy ta'limda o'qitishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil etish L.A.Krokhmal, Ye Qian, J.C. Jackson, R.P.Hechter, S.Asim, J.Hughes, M.Honey olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlarida axborot tizimi ijtimoiy hayotining asosiy sohalari – oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlari yetarli darajada aks ettirilgan emas. Adabiyotlarni tizimli tahlili bo'lajak transport muhandisini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasining nazariy hamda uslubiy asoslari yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi. Shunday qilib, tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim va ishlab chiqarish tizimidagi sinergetik integratsiya jarayonlariga ortib borayotgan talablar va bo'lajak raqobatdosh muhandisni tayyorlashda ulardan samarali foydalanish uchun nazariy va uslubiy asoslarning yo'qligi bilan bog'liq ziddiyatning kuchayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AIF 1-3-son "O'zbekistonda oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini yaratish (SYNERGY)" (2019-2022 yy.) nomli loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash texnologiyasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining komparativistik tahlili asosida o'qitishning mavjud holatini tahlili orqali ta'lim jarayonida sinergetik integratsiyani amalga oshirishning shart-sharoitlarini aniqlash;

talabalar o'quv o'rganish faoliyatlarini tashkil etish va kompetentlik darajalarini dinamik o'sib borishini amaliy ta'minlaydigan texnik ta'limning identiv maqsadlari asosida oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ifoda etuvchi o'qitishning funksional modelini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbiq etish;

ishlab chiqarish - ta'lim korporatsiyalari integratsiyasi asosida bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashning integrativ ta'lim jarayonini ta'minlash va ular asosida ilmiy tushunchalar mazmunini yangi mazmunli holatga ko'tarish, fanni bir butunlikda rivojlanishi va hodisalarni ichki mohiyatiga chuqurroq kirib borishni ta'minlaydigan didaktik vositalarni ishlab chiqish;

oliy ta'limda ishlab chiqarishning ilg'or tajribalari asosida bo'lajak transport muhandislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni innovatsiyon tashkil etish orqali oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini amaliy ta'minlash va talabalar ilmiy dunyoqarashlarini shakllanish va rivojlantirish bo'yicha metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba sinov ishlariga Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va Jizzax politexnika institutlarining 480 nafar respondent-talabalari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash jarayonining mazmuni, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, so'rovnoma, suhbat, savol-javob, test natijalarini matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxs rivojiga va funksional faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tamoyili pedagogik axborot komponentlari uchun barqaror motivni (o'z-o'zini anglash, bilimlarni qo'llash, muvaffaqiyatga erishish, ijtimoiy foydalilik) shakllantirish, kasbiy faoliyat natijaviyligini belgilovchi bilim, ko'nikmalar va malakalarni (kognitiv, individual, samarali-operativ motivasion-shaxsiy, intellektual-ijodiy) integratsiyalash asosida ochib berilgan;

shaxsni rivojlantiruvchi oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi modeli ta'lim tarbiya nazariyasini amaliyot bilan shaxsning bilish jarayoni straktiyasida qo'llaydigan o'ziga xos bilish xususiyatlari aloqadorligini texnologik ta'limning identiv maqsadlari asosida kasbiy ko'nikmalarini amaliy ta'minlashga yo'naltirilgan potensial imkoniyatlari asosida takomillashtirilgan;

talabalar o'quv kursini o'qitish jarayonini uzviylikda rivojlantirishni amalga oshirish metodikasi hodisalarni baholashda dinamik va qayta aloqaning barqarorligini, oldingi va keyingi bosqichlardagi tushunchalarni chegaraviy hollarda o'zaro mosligini (refleksiv-samarali, tizimli-komponentli, samarali-oqilona) aniqlash asosida takomillashtirilgan;

talabalar o'quv bilish faoliyatini va ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti texnologik bilim kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezoni va ko'rsatkichlarini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy faoliyati kontekstida darajalash hamda miqdoriy va sifat parametrlarini ham tavsiflashga imkon beradigan ko'rsatkichlar ro'yxatini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi asosida bo'lajak muhandislarini tayyorlashda "5+1" innovatsion o'quv dasturi Nizomi ishlab chiqilgan (AndMI, MB №5, 2022);

oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash asosida ishlab chiqarish korxonalarida "Tayanch kafedra" tashkil qilindi va uning nizomi ishlab chiqilgan (AndMI, MB №5, 2022);

bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida "Spark R2 yengil avtomobili modelining qismlarini konveyrda yig'ish" EHM dasturi yaratilgan (№DGU 14620, 17.02.2022);

bo'lajak transport muhandislarida kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish, ishlab chiqarish muhitiga tez moslashishini ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish hamda jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida "Modellashtirilgan ishlab chiqarish muhiti" innovatsion laboratoriya tashkil qilindi va metodik ko'rsatmalari ishlab chiqilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-yanvardagi 89-05-09-son ma'lumotnomasi);

transport yo'nalishida tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy bilimlarini oshirishga imkon beruvchi "Avtomobil qismlarini yig'ish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (Guvohnoma №233-0992, 19.07.2022).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv, metodlar respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlar, xorijiy hamda OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotda tatbiq etilgani; tadqiqot vazifalariga mos tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; olingan natijalarning matematik-statistik qayta ishlov berilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavzu doirasidagi ilmiy izlanishlar natijasida oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini innovatsion rivojlantirish mazmuni, tashkiliy-pedagogik tuzilmasining ishlab chiqilganligi, kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan dasturiy vositalarning mavjudligi, ta'limda innovatsion tizimni ta'minlovchi mexanizm yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'lim muassasasi xodimlarining ilmiy innovatsion faoliyatini oshirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda ikki tomonlama sinergetik samaradorlikka erishishga qaratilgan "Avtotraktorlar va qismlarini yig'ish texnologiyasi" fani va "Modellashtirilgan ishlab chiqarish muhiti" o'quv dasturi mazmunini boyitadi, kasbiy tayyorgarligini oshiradi, zamonaviy jihozlar bilan ishlash, mustaqil va jamoada ishlash ko'nikmalarini takomillashtiradi va amaliy mashg'ulotlarda "Spark R2 yengil avtomobili modelining qismlarini konveyerda yig'ish" imitatsion modellashtirish metodidan foydalanib virtual holatda hamda "Modellashtirilgan ishlab chiqarish muhiti" innovatsion laboratoriyasida ishlab chiqarishning real ish muhitida ko'nikma hosil qilib boradi, so'ngra, bevosita ishlab chiqarishning o'zida malakaviy amaliyot davrida talabalarda amaliy ko'nikmalarining shakllanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi asosida bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

shaxs rivojiga va funksional faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tamoyili pedagogik axborot komponentlari uchun barqaror motiv o'z-o'zini

anglash, bilimlarni qo'llash, muvaffaqiyatga erishish, ijtimoiy foydalilikni shakllantirish, kasbiy faoliyat natijaviyligini belgilovchi bilim, ko'nikmalar va malakalarni kognitiv, individual, samarali-operativ motivasion-shaxsiy, intellektual-ijodiy integratsiyalash asosida ochib berilgan ilmiy yangiligidan "Avtomobil qismlarini yig'ish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmunini shakllantirishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyruq 233-0992-son guvohnomasi). Natijada, talabalarning avtomobil qismlarini yig'ishga doir bilimi, kasbiy ko'nikmalari, ijodiy kognitiv rivojlanish jarayoni takomillashtirilgan;

shaxsni rivojlantiruvchi oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi modeli ta'lim tarbiya nazariyasini amaliyot bilan shaxsning bilish jarayoni straktiyasida qo'llaydigan o'ziga xos bilish xususiyatlari aloqadorligini texnologik ta'limning identiv maqsadlari asosida kasbiy ko'nikmalarini amaliy ta'minlashga yo'naltirilgan potensial imkoniyatlari asosida takomillashtirilganligiga doir takliflar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda ularning ta'lim olish sifatiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-yanvardagi 89-05-09-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari bo'lajak transport muhandislarining innovatsion kompetentligini, ta'lim olish sifatini va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv reja va dasturlar mazmuni takomillashtirilgan;

talabalar o'quv kursini o'qitish jarayonini uzviylikda rivojlantirishni amalga oshirish metodikasi hodisalarni baholashda dinamik va qayta aloqaning barqarorligini, oldingi va keyingi bosqichlardagi tushunchalarni chegaraviy hollarda o'zaro mosligini (refleksiv-samarali, tizimli-komponentli, samarali-oqilona,) aniqlash asosida takomillashtirilgan takliflari bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda ishlab chiqarish korxonalarida tayanch kafedralarni tashkil qilish, "5+1" innovatsion o'quv dasturining nizomini ishlab chiqish va shart-sharoitlarini tashkil qilishga oid tavsiyalar Jahon bankining Akademik Inovatsiyalar fondi "O'zbekistonda oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini yaratish (SYNERGY)" loyihasi (2019-2022-yillar) doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-yanvardagi 89-05-09-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak transport muhandislari uchun ishlab chiqarish korxonlarida tashkil qilingan tayanch kafedralarda "5+1" innovatsion o'quv dasturi asosida xaftada 1 kun mutaxassislik fanlaridan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini ishlab chiqarish korhonasining zamonaviy jihozlaridan foydalanib tashkil etishga erishilgan;

talabalar o'quv bilish faoliyatini va ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti texnologik bilim kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezonini va ko'rsatkichlarini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy faoliyati kontekstida darajalash hamda miqdoriy va sifat parametrlarini ham tavsiflashga imkon beradigan ko'rsatkichlar ro'yxatini aniqlash asosida takomillashtirilgan doir takliflari "Avtomobil qismlarini yig'ish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma tayyorlash jarayonida foydalanilgan (Oliy

va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyruq 233-0992-son guvohnomasi). Natijada, bo'lajak transport muhandislari uchun ishlab chiqarish korxonalaridagi yig'uv ishlarini to'g'ri tashkil qilish, mustaqil va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi guvohnomasi 1 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda sinergetik integratsiyaning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim muassasasi va korxonaning o'zaro integratsiyasi hamda mutaxassis tayyorlashning tashkiliy-pedagogik muammolari, bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda sinergetik integratsiyaning nazariy masalalari, bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasining muhim yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Jamiyat, fan va texnikaning jadallashuvi, axborotlar texnologiyasining kun sayin rivojlanishi XXI asrni chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborotlar tizimiga yetaklamoqda. Bu esa xar tomonlama chuqur integrativ bilimga, intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning integratsiyalashgan mexanizmini yaratish va uni amaliyotga joriy etish bajarilishi lozim bo'lgan muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi ta'lim tizimida sifatli kadrlarni tayyorlash uchun yo'naltirilgan bir qator interfaol metodlar, buyurtmachilar bilan hamkorlik aloqalari, jamoa bo'lib ishlashga yo'naltirilgan harakatlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu harakatlardan biri sifatida oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini misol qilib, integratsiya jarayonining turli shakllarini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun,

talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashi, bitiruv malakaviy va kurs loyihalari mavzularining ishlab chiqarish muammolariga asoslanganligi, ilmiy loyihalar natijasini joriy etish uchun korxonalariga tavsiya etilganligi va boshqalar. Oldimizga oliy bir maqsad qo'yganmiz, ya'ni bo'lajak transport muhandislarini tayyorlash va buyurtmachilarning talabini qondirish. Bunday maqsadga erishish yo'lidagi hamkorlikda ikki tomonning manfaati qanday bo'lishi kerak? O'ylaymizki, ikki tomonlama manfaatga erishish uchun albatta tomonlarning vazifalari aniq belgilanganligi va ishga mas'uliyat bilan yondashishi kerak bo'ladi.

Hozirda turli tarmoqlarda hamkorlikdagi aloqalarni aks ettirishda integratsiya atamasidan tashqari sinergiya atamasi ham keng qo'llanila boshladi. Integratsiyada bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq, sintezning yuqori darajasi hisoblansa, sinergiyada biroz boshqacha. Ya'ni, sinergiyada nafaqat umumiy natija, balki ikki tomonning hamkorlikdagi samarasiga ham e'tibor qaratiladi. Bunda ikki tomon ham manfaatdor bo'lishi uchun birgalikdagi harakati muhim ahamiyatga ega.

Texnik ta'lim muassasalarida ham ko'proq ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Hamkorlikda, asosan yozgi amaliyotlar, kurs ishlarini bajarish va diplom loyihalarini hamda magistrlik dissertatsiya mavzulari kabi ma'lumotlarni olishga qaratilgan. Professor-o'qituvchilar esa asosan, o'zlarining ilmiy ishlari va turli loyihalar orqali faoliyat olib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Agar hamkorlikda bajarilayotgan ishlar va topshiriqlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bunda ko'proq manfaatdorlik oliy ta'lim muassasalariga qaratilganligi ma'lum bo'lmoqda. Ammo bunday integratsiya bilan ikki tomonlama manfaatli bo'lgan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash qiyin.

Bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi iborasiga ta'rif berishga harakat qilamiz. Unga ko'ra: "Oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasi bu – yaxlit tizimining har bir quyi tizimida yaratilgan intellektual maxsulotlarning mutlaqo yangi sifatida namoyon bo'lishi va texnik universitet, fan va ishlab chiqarishning yagona ta'lim makonini tashkil etuvchi, barcha subyektlarining ijodiy rivojlanishi uchun kuchli potensialni namoyish etuvchi, bo'lajak muhandislarni sifatli va innovatsion tayyorlashga erishuvchi hamkorlikdagi ijodiy faoliyatdir. Bu turdagi integratsiyada nafaqat bo'lajak transport muhandislarini tayyorlash, balki ikki tizim (oliy ta'lim va ishlab chiqarish)ning manfaatlarini ko'zlagan holda pedagogik, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshiruvchi hamkorlikdagi faoliyat amalga oshiriladi. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasining ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini ochib berish tadqiqot ishimizning muhim vazifasi hisoblanadi. Albatta, bunda integratsiyalashgan ta'lim va tizimlararo sinergetik integratsiyaning uzviyligi va amalga oshirish mexanizmini ta'minlamasdan samarali natijalarga erishib bo'lmasligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Sinergetik integratsiyada oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalariga sifatli mutaxassislar tayyorlash jarayonida bir xil mas'uliyatni yuklaydi. Oliy ta'lim tizimidagi eng asosiy manfaatlaridan biri bu ishlab chiqarishning texnik bazasi va imkoniyatidan foydalanib, bo'lajak transport

muhandislarini tayyorlash, ilmiy loyihalar ustida ishlash, amaliyotlarni o'tkazish va boshqalar. Ishlab chiqarish korxonasi sifatida avvalo – mutaxassis xodimlarni izlash, tanlash va ularning bazasini yaratish, ularni qayta o'qitish va ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida zarur mutaxassis xodimlar tayyorlashni aytishimiz mumkin. O'z navbatida bo'lajak transport muhandislari nafaqat muayyan ishlab chiqarish sharoiti bilan tanishadilar, kasbiy faoliyat asoslarini o'zlashtiradilar, balki oliy ta'lim muassasasini tamomlaganidan so'ng mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish imkoniga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha qo'mitasi (UNESCO) va konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) hamkorligida jalb qilingan nufuzli xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan o'tkazilgan tahlillar asosida xulosalar berildi. Ushbu xulosalar asosida quyidagilar aniqlangan:

oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlanmaganligi;

talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish samarali tashkil etilmagani oqibatida bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga, ishga joylashgandan keyin o'z mutaxassislik kasbini qaytadan o'rganayotganligi;

ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi;

ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarning yetishmasligi;

xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi kabi kamchiliklar qayd etilgan².

Xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda, bo'lajak transport muhandislarini tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish, oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini amalga oshirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsad qilib olindi.

Bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda sinergetik integratsiyani ta'minlash jarayonini samarali tashkil qilishda muhim yo'nalishlarni belgilab olishimiz zarur. Sinergetik integratsiyani ta'minlash jarayonining muhim yo'nalishlarini aniqlash maqsadida texnik oliy ta'lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalaridan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada texnik oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ishlab chiqarish korxonalaridan xodimlarni boshqarish bo'limi mutaxassislari va bo'lim boshliqlari jami bo'lib 223 ta respondent qatnashdilar.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3286194>.

oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlanmaganligi;
texnik oliy ta'lim tizimidagi laboratoriya jixozlarining ma'nan eskirganligi
yoki yetishmasligi sabab talabalar o'z mutaxassisligi bo'yicha zaruriy bilimlarni
egallay olmasligi;

korxonalaridagi mavjud laboratoriya jixozlaridan samarali foydanilmaslik;
talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish
samarali tashkil etilmaganligi;

bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga,
ishga joylashgandan keyin ma'lum vaqt (1-3 yil) mobaynida o'z kasbiy
mutaxassisligini qaytadan o'rganayotganligi;


talabalarning mustaqil va jamoada ishlash ko'nikmasining yetishmasligi
o'rganildi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra bo'lajak transport muhandislarini
tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasining
modernizatsiyalangan yo'nalishlari belgilab olindi va keyingi bobda ko'rib
chiqiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak transport muhandislarini tayyorlash
jarayonlari va ularni ishlab chiqarish bilan sinergetik integratsiyasini
ta'minlashning amaliy – texnologik jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida,
integratsion hamkorlik asosida bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashning
innovatsion modeli, oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini
imitatsion modellashtirish asosida o'quv-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish
texnologiyasi, oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ishlab
chiqarish muhitini modellashtirish asosida o'quv-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish
texnologiyasining innovatsion ta'lim tizimidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli
«2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
to'g'risida»gi farmoni, 2018-yil 5-iyuldagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim
sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli
islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar
to'g'risida»gi PQ-3775-son qarorlari qabul qilindi. Mazkur qarorlar bilan oliy
ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish, o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-
kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha oliy ta'lim tizimini 2030-
yilgacha kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Bizning fikrimizcha oliy
ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish orqali ishlab
chiqarish va ilmiy tashkilotlarni yuqori malakali mutaxassis xodimlarga bo'lgan
talablarni to'la ta'minlash mumkin. Shunga muvofiq **“Bo'lajak transport
muhandislari kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishning oliy ta'lim va ishlab
chiqarish sinergetik integratsiyasi modeli”** ishlab chiqildi (1-rasm).

Model bo'lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab
chiqarish sinergetik integratsiyasi ta'minlash imkonini berdi. Model quyidagi uchta
asosiy bloklardan tashkil topgan: maqsadli, didaktik jarayon hamda natijali
bloklardan.



1-rasm. Bo'lajak transport muhandislari kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishning oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi modeli


Dastlabki maqsadli blokida davlat ta'lim standarti malaka talablari hamda mehnat bozori talablarini o'rgangan holda bo'lajak transport muhandislarini sinergetik integratsiya asosida bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirishdan iborat.

Didaktik jarayon blokida oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash jarayoni, uni amalga oshirish bosqichlari hamda bo'lajak transport muhandislarining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish mazmuni, metodik yondashuv, didaktik vositalar, shakllari keltirilgan.

Natijaviy blokida oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash texnologiyasi asosida bo'lajak transport muhandislarining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish ko'rsatkichlari va baholash mezonlari yoritilgan.

Oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash shakllariga alohida to'xtalishimiz maqsadga muvofiq. Shakllari sifatida o'quv jarayonining muvofqlik jadvali asosida ta'limning "5+1" innovatsion o'quv dasturida o'qitish, tayanch kafedralarni tashkil qilish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda kurs loyihalari, BMI, dissertatsiya ishlariga rahbarlik qilish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish ishlarini keltirishimiz mumkin.

"5+1" innovatsion o'quv dasturida o'quv jarayonini tashkil qilish. Mazkur o'quv dasturining yutuqlaridan biri shuki, unda talaba o'quv jarayoni mobaynida 5 kun oliy ta'lim muassasida va 1 kun ishlab chiqarish korxonasida olgan amaliy ko'nikmalari asosida mustahkamlab boradi. Ushbu dasturda ish beruvchi mutaxassislarning kasbiy bilimlarni shakllantirishda, bitiruvchilarni korxonaning ish sharoitlariga ko'nikishi va "Ustoz-shogirdlik" tizimlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi.



2-rasm. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi asosida tashkil qilingan tayanch kafedrani o'rni

O‘z navbatida talabalar nafaqat muayyan ishlab chiqarish sharoitlari bilan tanishadilar va kasbiy faoliyat asoslarini o‘zlashtiradilar, balki oliy ta‘lim muassasalarini tamomlaganidan so‘ng mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Tayanch kafedra ta‘lim muassasasining tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, u hamkor korxonalar bilan birgalikda tashkil etilgan. Hamkorlar odatda ishlab chiqarish korxonalarini, buyurtmachilar hisoblanadi. Tayanch kafedralarda mashg‘ulotlar ta‘lim muassasa o‘qituvchilari va korxonalar mutaxassislari tomonidan olib boriladi. Korxonalar xodimlari talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishlari hamda o‘quv dasturlarini hamkorlikda tuzishi va barcha kurslardagi talabalarni ishlab chiqishda ishtirok etishlarini, maqsadli o‘qitish uchun shartnomalar tuzishlari va talabalarning ilmiy-tadqiqot va diplom ishlarini nazorat qilishlari mumkin. Tayanch kafedrada tashkil etilgan o‘quv muhitida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy qiyofasini yaratishga, talabalarga ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish shakllari, vositalari va sur‘atlarini o‘zlari tanlash imkoniyatlari yaratiladi.

Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi asosida tashkil qilingan tayanch kafedrani o‘rni yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda interfaol metodlardan samarali foydalanishga e‘tibor qaratildi. Bunda, asosan, auditoriyada, innovatsion laboratoriyalarda (jamoaviy hamda individual) mashg‘ulotlar uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta‘minlay olish imkoniyatiga ega interfaol metodlar tanlandi, ya‘ni: nazariy mashg‘ulotlar uchun tanlangan interfaol metodlar: “Tushunchalar ta‘rifi”, “Klaster”, “Bumerang”, “Loyihalash” va didaktik vositalar (multimediali elektron darslik).

Amaliy mashg‘ulotlar uchun tanlangan interfaol metodlar: “Baliq skeleti”, “Keys-stadi”, “Loyihalash”, “Imitatsion modellashtirish”, “Ishlab chiqarish muhitini modellashtirish” kabi innovatsion ta‘lim texnologiyalari, shuningdek zamonaviy didaktik vositalar, kompyuterning Unity dasturida Spark R2 yengil avtomobili modelining qismlarini konveyerda yig‘adilar.

“Avtotraktorlar va qismlarini yig‘ish texnologiyasi” fanidan 5310500-Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavr yo‘nalishi talabalariga amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda imitatsion modellashtirish metodidan foydalanilmoqda.

“Imitatsion modellashtirish” metodi uchun, tadqiqotchi tomonidan yaratilgan EHM elektron dasturi asosida Spark R2 yengil avtomobili modelining qismlarini konveyerda yig‘ish ishlari amalga oshirilib, bo‘lajak transport muhandislari kasbiy ko‘nikmasini takomillashtirish maqsad qilib olingan (3-rasm).



3-rasm. Avtomobil detallarini imitatsion modellashtirish asosida yig'ish

“Ishlab chiqarish muhitini modellashtirish” metodida, tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan metodik ko‘rsatmalar va “Avtomobil qismlarini yig‘ish texnologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi asosida korxonaning ishchi xodimlarini, yangi ishga kirgan xodimlarni, talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga moslashtirish, ishlab chiqarishdagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga o‘rgatish, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini boshqarish kabi amallar o‘rganiladi. Ishtirokchilar guruhlariga bo‘linib, avtomatlashtirilgan liniyalarda ishlab chiqarish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir bosqichdan keyin jamoalar yig‘ilib xavfsizlik, sifat, ishlab chiqarish ishini muhokama qiladilar (4-rasm).



4-rasm. Ishlab chiqarish muhitini modellashtirish

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning ko‘proq texnologik ongning nazariy darajasini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi aksariyat hollarda ko‘pincha, talabalarning bilimi va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Auditoriyadan tashqari (mustaqil ta‘lim, kurs loyihasi, BMI, ijodiy topshiriqlar) mashg‘ulotlarda talabalarni kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga qulay sharoit yaratiladi. Mustaqil ta‘limni maqsadi talabalarni muammolar ustida individual va jamoada ishlash orqali mustaqil bilim olish va o‘zini-o‘zi baholash imkoniyatini beradi. Kurs loyihalari turli didaktik natijalarning qaror topishiga olib keladi. Bitiruv malakaviy ishlarida talabalarni kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq egallab olish, ijodiy rivojlanishiga yordam beruvchi didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak transport muhandislarini tayyorlashda oliy ta‘lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasi yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi**” deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta‘lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasiga qaratilgan tajriba

sinov ishlarini tashkil etish metodikasi, oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasiga yo'naltirilgan tajriba sinov ishlarining matematik statistik taxlili keltirilgan.

Tajriba-sinov muammolarini o'rganish bosqichida quyidagilar aniqlandi:

- professor-o'qituvchilar oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini ta'minlash texnologiyasidan foydalanishda multimediali elektron o'quv adabiyotlari, nazorat uchun darajali ko'pvariantli testlar, intellektual kompyuter mashg'ulotlari, videodarslar kamligi sababli, integratsiya masalasi o'qitishda yetarli darajada samaraga bermayotganligi;

